

OQ VA QORA RANG BILAN BOG‘LIQ KODLARNING O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDAGI IFODASI

Bozorov Hamid Xo‘shmurodovich

Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedarası o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqlarning mentalitetidan o‘rin olgan oq va qora ranglarning lingvomadaniy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Oq va qora ranglarning ramziylik belgisi, ushbu ranglarning “qo‘shma” holatda bir frazeologizm tarkibida kelishi va o‘zbek xalq ertaklari tilida qo‘llanishi kabi masalalar misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniyat, kod, lingvomadaniy kod, frazeologizm, rang, qo‘shma rang, o‘zbek xalq ertaklari.

ВЫРАЖЕНИЕ КОДОВ СВЯЗАННЫХ С ЧЕРНЫМ И БЕЛЫМ, В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ

Аннотация. В данной статье размышляются лингвокультурные особенности белого и черного цветов, которые имели место в менталитете народов. На примерах поясняются такие вопросы, как символика белого и черного цветов и встречаемость этих цветов в «сборной» фразеологии и их употребление в языке узбекских народных сказок.

Ключевые слова: языковая культура, код, лингвокод, фразеология, цвет, комбинированный цвет, узбекские народные сказки.

THE EXPRESSION OF THE CODES RELATED TO BLACK AND WHITE COLOR IN UZBEKI FOLK TALES

Abstract. This article reflects the linguistic and cultural features of white and black colors that occurred in the mentality of peoples. The symbolic meaning of white and black colors and the meeting of these colors in "combined" phraseologies, and their use in the language of Uzbek folk tales are explained in examples.

Key words: linguistic culture, code, linguological code, phraseology, color,

combined color, Uzbek folk tales.

Kirish

Har bir xalq olamni o'ziga xos tarzda ko'rishi mumkin. Bu jarayonda xalqning milliy-madaniy hayoti, urf-odatlar, xarakteri, dunyo haqidagi qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Natijada, xalq vakillarining ongida olam haqidagi qarashlari kodlashtiriladi. Dastlab aniq fanlar, jumladan, matematika va informatika ilmida keng qo'llanilgan "kod" tushunchasi bugungi kunda gumanitar fanlarning ham muhim tushunchalaridan biriga aylanib ulgurdi. Jumladan, "Tilshunoslikda antroposentrik paradigma rivoji bilan tilga muloqot yoki olamni idrok etish vositasigina emas, o'zi tegishli bo'lgan millatning madaniy kodlari yig'indisi sifatida ham qarash mustahkamlanib bormoqda [8]. Har bir xalq lingvomadaniyatidan o'rin olgan ramzlar o'sha xalq ongida kodlashadi. Bu jarayonni lingvomadaniy aspektda tahlil qilish bugungi kun tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Til va madaniyatning belgilik xarakterini inobatga oladigan bo'lsak, belgilar yordamida xalq madaniyatining o'ziga xos tomonlarini kelgusi avlodlarga yetkazib berish vazifasini yuklaydi. Bu haqda rus tilshunosi M.L.Kovshova: "Asosiy kodlardan biri bu tildir, shuning uchun tabiiy tilda madaniyat o'zining qiymat mazmuniga ega bo'lgan ma'nolarini mujassamlashtirish uchun belgilarni topadi [2]", deb qayd etadi. Turli belgilar alohida fan sohalarida hamda kundalik turmushda keng qo'llanadi. Inson o'z olamini belgilar bilan to'ldirib borishining sababi axborotni ixcham holda yetkazish, tejamkorlikka intilishda, deb hisoblash mumkin [2]. Darhaqiqat, har bir xalq o'z lingvomadaniyatida mavjud kodlarni oson tushunadi, shu bois ortiqcha izohlarga murojaat qilmaydi. V.Krasnix madaniyat kodlarini borliqqa tashlangan "to'r" sifatida qayd etadi hamda "Madaniyat kodlari insonning eng qadimgi arxetipik tasvirlari bilan bog'liq bo'lib, tasvirlarni kodlaydi" [3], degan xulosaga keladi.

Lingvomadaniy kodlarni jahon tilshunosligida o'tgan asrda ilmiy tadqiq etila boshlangan bo'lsa, XXI asrga kelib o'zbek tilshunosligida ham bu borada sezilarli

ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, professor D.Xudayberganova “O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini” nomli doktorlik dissertatsiyasida *biomorf kod, vaqtga doir kod, makoniy kod, ma’naviy kod, onomastik kod, predmetli kod, somatik kod* kabi ko‘rinishlari mavjudligini ta’kidlab o‘tadi.

Asosiy qism

Kodlar ichida rang bilan bog‘liq kodlar ham mavjudki, ushbu kodlar har bir xalqning mentalitetini ko‘rsatishda alohida ahamiyatga ega. Boshqa kodlar singari rang bilan bog‘liq kodlar ham qaysi xalq bo‘lishidan qat’i nazar, o‘sha xalqning o‘tmishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Chunki dunyoning lisoniy manzarasida har bir xalqning ranglar bilan bog‘liq o‘z qarashlari, milliy-madaniy ifodalari mavjud. Bu haqda rus tilshunosi S.Fetisova: “Lingvistik tadqiqotlarda bilish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan kontseptual tahlil rang ma’nosi tarkibiga kiruvchi ongning ma’lum “kvantlari”ga murojaat qilish orqali rang sezgilarining verbalizatsiyasini tushuntirishga imkon beradi” [6],– deb ta’kidlaydi.

O‘zbek xalqining tarixi haqida xabar beruvchi muhim manbalardan biri xalq ertaklari hisoblanadi. Xalq ertaklaridan o‘rin olgan lingvomadaniy kodlarni tadqiq etish bugungi kun tilshunosligi uchun muhim hisoblanadi. Chunki ertaklar tilida antropomorf, biomorf, demonomorf, fitomorf, predmetli, mifologik, teomorfik, shuningdek, rang bilan bog‘liq kodlar ko‘plab uchraydi. Ushbu kodlar o‘zbek xalqiga xos mentallikni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu kodlar ichida ranglar bilan bog‘liq ramzlar o‘zbek xalqiga xoslikni ifodlashga xizmat qiladi. O‘zbek xalq ertaklaridagi ranglarning milliy-mentallik xususiyati haqida gap ketar ekan, eng ko‘p qo‘llanilgan oq va qora ranglar muhim o‘rin tutishini ta’lidlab o‘tishimiz lozim.

Olamning lisoniy manzarasidan o‘rin olgan asosiy ranglardan biri **oq rang** bo‘lib, jahon xalqlari mentalitetida turli talqin qilinishi assotsiatsiyalarda o‘z aksini topadi. O‘zbek madaniyatida oq rang pokizalik, musaffolik, ezgulik ramzini anglatadi. Masalan, oqlik, oq o‘rar, ona sutidek oq, oq ot yoki kelinlarning oq libos kiyishlari [12]. Assotsiatsiyalar esa har xil lisoniy ong egalarining mentalitetiga bog‘liq holda turlicha akslanadi. I.Xodjalepesova oq rangning xalqlar

madaniyatidagi assotsiatsialariga to'xtalar ekan, quyidagilarni keltirib o'tadi: "Oq rang – tinchlik va osoyishtalik ramzi. V.Kandinskiyning fikricha, oq rang sukunat, to'xtam, vaqtinchalik tugash ramziy ma'nolariga ega. Oq rangning kognitiv mazmuni yorqinlik, yaxshilik, ezguli narsa bilan bog'liq. Oq rang – kuch va sog'lik manbai, qalb va niyatlarning pokligi, qayg'u va baxtsizlikning yo'qligi ramzidir... Umuman olganda, oq rang yaxshi boshlanish bilan bog'liq [7]. Shu o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tishimiz joizki, aksariyat xalqlar mentalitetida oq rang ijobiy ma'nodagi tushunchalarni kodlasa-da, ayrim xalqlar mentalitetida salbiy tushunchalarni ham aks ettiradi. Bundan tashqari, "oq bayroq ko'tarish" murosa ramzini ifodalasa, ba'zi lingvomadaniyatlarda oq rang qo'rqqoqlik timsoli sifatida keladi. Masalan, Birinchi jahon urushida harbiy xizmatdan qochib ketgan fransuz askari yoki zobitiga qo'rqqoqlik ramzi sifatida oq patlar yuborilgan [12].

O'zbek xalqi lisoniy manzarasida **qora rang** ham turli tushunchalarni kodlaydi. Boshqa xalqlarda bo'lgani singari o'zbek xalqida ham qora rang salbiy ma'nodagi tushunchalarni ifodalaydi. O'zbek xalq ertaklarida aniq ifodaga ega narsaning "qora narsa" ko'rinishida ifodalanishida ham ishora mavjud:

*Qarasa, bir daraxtning tagida bir **qora narsa** yotibdi, haybatining zo'rligidan jami hayvonlar tovush chiqarmay qochar edilar. Sherzod o'zini dadil tutib, sherning ro'parasiga bordi va unga qattiq tikildi [10].*

Misolda ko'rinib turibdiki, yovuz va qonxo'r sherning salbiylik ottenkalarini oshirish maqsadida dastlab qora rangda tasvirlanyapti. Bu ishorada sherning tashqi rangi inobatga olinmay, "**yovuzlik**" etalonini ifodalash uchun xizmat qilgan. Matn bilan tanishuvchi ongida "daraxtning tagidagi qora narsa", albatta, salbiy obraz (dev, shayton va hakazolar kabi yovuz kuchlar)ni gavdalantiradi. Quyidagi misollarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, xalq ertaklarimizda qora rangning salbiy ifodasi yaqqol ko'zga tashlanadi.

*Devorlarda yarog'-aslahalar terib qo'yilgan, bir tomonda yigirma chog'li odam davra qurib o'tirar, ularning peshonalari qaqqaygan, ko'zlari chaqchaygan, **ko'ngillari qora**, yuzlari ola, o'ylaganlari yomonlik ekan (O'zbek xalq ertaklari. "Uch og'a-ini botirlar", 19-b.).*

*Bu yomon **qora kunlarga** qolgan bechora xotin yig‘i-sig‘i qilib, ota yuzini ko‘rmay qolgan yetimchani yaxshilab tarbiyalashga kirishibdi* (O‘zbek xalq ertaklari. “Tohir va Zuhra”, 46-b.).

Qora rang bilan bog‘liq frazeologik birliklarning etimologiyasi o‘zbek xalq ertaklarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan, inson sha‘ni bilan bog‘liq jarayonlarda xatoga yo‘l qo‘yilganda yoki o‘g‘irlik kabi illat bilan bog‘liq jarayonlarda jazo tariqasida gunohkorning yuziga loy yoki qora rang tortib, eshakka chap mindirib, xalqqa ko‘rsatishgan:

*Qizlarga: “Shu kiyikni o‘rab olib, tiriklayin tutinglar, kiyikni hech kim qochirmasin, agar qochirsa, **yuziga qora surtib**, ovdan haydanglar”, - dedi* (Uch og‘ayni botirlar. “Ziyod botir”, 204-b.).

Mana shunday jazo turi, nazarimizda, bugungi kunda o‘zbek madaniyatida “yuzi qora” iborasining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

- **Ro‘yisiyoh**, sening qilgan ishingga ikki guvoh ham bor. Sening jazong o‘lim, - debdi (“Tuhmatga uchragan kelin”, 48-b.).

Quyidagi misolda qora rangining o‘zbek xalqi lisoniy manzarasidagi boshqa bir ifodasi ham ko‘zga tashlanadi:

*Qiz o‘rnidan turib: “Jodu qilingan dev men bilan kurashishga keldi”, dedi. O‘zi duo o‘qib bir katta **qora qush** bo‘lib, kaptar bilan olishdi* [10].

Ushbu misolda devning kabutar ko‘rinishida, ijobiy obraz – qizning qora qush qiyofasiga kirishini guvohi bo‘lamiz. Bunda qora rangning xalqimiz lisoniy manzarasida “*buyuklik*”, “*qora kuchlarga qarshi turuvchi*” rang sifatida ham ko‘rishimiz mumkin. Fikrimizni dalillash uchun o‘zbek xalqida qadimdan mavjud bo‘lgan va hozir ham ba’zi hududlarda saqlanib qolgan chaqaloqqa ko‘z tegmasligi uchun “qora” surtib qo‘yish holatlarini ko‘rishimiz mumkin. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa “begona” ko‘zning chaqaloqqa qarashida ilk “nazar” (ko‘z yoki suq)ning qora rangga tushishi bilan izohlashimiz mumkin.

Shuni ham esadan chiqarmaslik kerakki, o‘zbek lingvomadaniyatida qora rang “*yoshlik*”, “*o‘ktamlik*”, “*go‘zallik*” kabi etalonlarni ham ifodalab keladi. O‘zbek xalqi ongida mavjud “*qora ko‘z*”, “*qora soch*”, “*qora qosh*” kabi birikmalar

go‘zallik ramzini kodlasa, “soch va soqoli qora (chol)” ifodasi “yoshlik” va o‘ktamlik” kabi tushunchalarni ifodalab keladi. Bu o‘rinda “soch”ning qoraligi nafaqat erkaklarning, balki ayollarning “yoshlik” sifatlarini ifodlab keladi. Bundan tashqari qora rang buyuklik ramzini ifodalaganligi ham ma’lum. Akademik G‘.G‘ulom ham Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini to‘liq sharh bilan tayyorlashda “Xoqon farzandli bo‘lgan kuni mamlakatidagi hamma devorlarni qora rangli ipak matolar bilan bezash buyrug‘ini berganini aytadi. Tabiiyki, nima uchun podsho farzand ko‘rgan kuni butun yurti qora harir libosda ko‘rishni xohlagan, degan savol tug‘iladi. Gap shundaki, Navoiy yashagan davrda qora rang buyuklik, ulug‘lik ramzini ham ifodalagan [11].

Ranglar madaniy universalialarni ifodalab keladi. Jumladan, o‘zbek xalqida ham ranglar bilan bog‘liq qarashlar bor. Bu qarashlar qadimdan mavjud bo‘lib, rang komponentli frazeologizmlarning yuzaga chiqishiga va xalqimiz ongida kodlashishiga sabab bo‘lgan. Tilshunos olim Txan Xaning fikriga ko‘ra, “Frazeologik birliklar mazmuniga ko‘ra obraz, hodisa, holat, xarakter, xulq-atvor, munosabat ... ifodalaydi [5]. Shu ma’noda oq va qora rang bilan bog‘liq frazemalarning ham o‘zbek xalqiga xos jihatlari mavjud. Aynan oq va qora komponentlarining bir frazema tarkibida uchratish mumkin.

Xalq ertaklarining pand-nasihat ruhida va hayotiy haqiqatlar bilan bog‘liqligini inobatga olib, qadriyatlarimiz negizida shakllangan “oq-qorani tanimoq”, ya’ni yaxshini yomondan, foydani zarardan ajrata olish [4] kabi mazmunni ifodalovchi va nutqimizda hozir ham keng qo‘llanuvchi **“qo‘shma rang”** komponentli frazemalar ham ko‘plab uchraydi:

Uning uchta o‘g‘li bor ekan, uchovi ham o‘qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari oyday, o‘zlari tog‘day, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekanlar (Uch og‘a-ini botirlar. “Uch og‘a-ini botirlar”, 152-b.).

O‘zbek xalq ertaklarida **“oq va qora”** ranglar bilan ifodalangan ba’zi iboralar xalq hayotining mifologik va diniy qarashlari asosida vujudga kelgan. Jumladan, “balo” leksemasi biror voqea-hodisa, harakat tufayli yuzaga kelgan ofat, falokat, tashvishni ifodalaydi. “Balo” leksemasi salbiy ma’no ifodalaganligi qora leksemasi

bilan qo'llanish holatlarini kuzatganmiz. Ammo quyidagi misolda ijobiy ma'no ifodalovchi oq leksemasi ham balo leksemasi bilan yonma-yon qo'yilganligining guvohi bo'lamiz:

Devlar boshlig'i: "Qochib qol, esing borida, uyimizga oq balo-qora balolar kelib qoldi", - deb baqiribdi (Uch og'a-ini botirlar. "Mushuk, it va sichqon", 187-b.).

Yuqoridagi misolda "oq balo" sifatida ofatni keltirib chiqaruvchi "tutun", "**olov**" hamda "**arvoh**" kabilar, "**qora balo**"lar esa xalqimiz mentalitetida asrlar davomida shakllangan "qora kuchlar" ma'nosini ifodalagan, desak xato bo'lamaydi. Demak, "oq-qora baolar kelmoq" frazemasini "salbiylik darjasini oshirib, "barcha kulfatlar birga kelmoq" mazmunini ifodalagan.

Quyida oq va qora rang komponentli frazemaning qo'llanishida o'zbek davlatchiligi tarixining ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liq ba'zi jihatlar e'tiborni tortadi: *O'ratepa begi xalqdan oq uylikka qoracherik – odam so'rabdi* (Oyjamol. "To'lgonoy", 21-b.).

"Oq uylik" – qadimda va o'rta asrlarda davlatlararo siyosiy munosabatlarda siyosat garovi tariqasida bir davlatdan ikkinchi davlatga beriladigan kishilar. O'rta Osiyo va boshq Sharq mamlakatlarida bir hukmdor ikkinchi bir hukmdorga do'stligi yoxud tobeligi isboti tariqasida o'z tomonidan Oq uylikka yuborar edi.

"Qora cherik" esa Buxoro amirligi siyosatida doimiy qo'shin bilan bir qatorda turadigan urush yoki tinchlik paytida xizmatda bo'lgan nomuntazam Lashkar [9] ma'nosini ifodalaydi.

Ertak matnida ifodalangan "Oq uylikka qora cherik" birikmasining denotativ ma'nosida, hukmron davlat (Oq uylik)ga qarshi bosh ko'tarish (qora cherik)ni ifoda etgan. Ushbu birlik ma'no ko'chishi natijasida O'zbekiston hududining Buxoroning ba'zi hududida "boy ishini hal qilishi oldindan aniq edi" ma'nosini ifodalovchi "Oq uylikka qora cherik" (ba'zi hududlarda "Oq uylikka qora shahar") frazemasining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Rang belgilari rangni ifodalash uchun ishlatiladigan lingvistik vositalarning geterogen tizimi sifatida qaraladi. Tilning turiga ko'ra, rang atamaları turli yo'llar

bilan ifodalanishi mumkin [1]. Bunda xalqlarning ma'naviy va madaniy qarshlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'zbek xalqi nutqidagi ko'k o'rnida **“osmon”**, qizil o'rnida **“qon (atirgul)”**, qora o'rnida **“zulmat”**, **“qorong'ulik”**, oq o'rnida **“yorug'”**, **“nur”** kabilarni misol qilishimiz mumkin. Bunday ko'rinishlar xalq ertaklarimizda ham mavjud:

Savdogar karvonlarning ichiga yorug' kirib, o'zlarida yo'q xursand bo'libdi (Oyjamol. “Uch avliyo”, 15-b). “Ichiga yorug' kirmoq” frazemasi o'rnida bugungi kunda **“ko'ngli yorishdi”** frazemasi faol qo'llanadi.

Otasi Ziyod botirni shahardan haydab yuborgandan keyin Qamarxonning ko'ziga yorug' dunyo qorong'u bo'lib, erta-yu kech Ziyod botirni yodlab, kechalari yig'lab tong ottiradigan bo'lib qolibdi (“Ziyod botir”, 205-b.).

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, oq va qora ranglarning jahon xalqlari lingvomadaniyatida kodlanishi va turli ramzlarni ifodalashi bevosita har bir xalqning lisoniy manzarasi bilan bog'liq. Oq va qora ranglarning o'zbek xalqi lingvomadaniyatda turli ramzlarni ifodalashi xalqning o'tmishi bilan bog'liq bo'lib, xalqimiz hayotidan xabar beruvchi xalq ertaklaridagi kodlarning, xususan, rang bilan bog'liq kodlarni tadqiq qilish tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Горн Е.А. Цветообозначения в художественном тексте на английском и русском языках в сопоставительнопереводоведческом аспекта (на материале современной английской литературы). Автореф. дис... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2015. – С.12.

2. Ковшова М.Л. Семантика и прагматика фразеологизмов (лингвокультурологический аспект). Автореф.дисс... док. филол.наук. – Москва, 2009. – С.9-170.

3. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. – М.: Гнозис, 2002. – С. 232.

4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 198.
5. Фам Тхи Тхань Ха. Сопоставительный анализ соматических фразеологизмов английского и вьетнамского языков. Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Казань, 2005. – С.10.
6. Фетисова С.А. Концептуализация имени цвета «красный». Автореф. дис... канд. филол. наук. – Иркутск, 2005. – С.3.
7. Ходжалепесова И. Антропоцентрик хусусиятларни тавсифлашда ранг символизми. Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс.автореф. – Самарқанд, 2022. – Б. 16.
8. Худойберганова Д. Лингвокультурологияда маданият кодлари тушунчаси ва талқини // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2019. – № 3. – Б.15.
9. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: Давлат илмий нашриёти, XI том. 2005. – Б.69.
10. Bo'ri bilan mergan: O'zbek xalq ertaklari. – Т.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2018. – В. 54-109.
11. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: Sharq, 2010. – В. 21.
12. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – В. 162.